GEMOBLASTOZLARNING MORFOLOGIK VA IMMUNOGISTOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI (XORAZM VILOYATI MIQYOSIDA)

Tangriberganova Nazira Ravshanbekovna
Urganch davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. Gemoblastozlar gematopoetik va limfoid to‘qimalarning o‘sma kasalliklari bo‘lib, ularni morfologik hamda immunogistokimyoviy jihatdan to‘g‘ri tasniflash tashxisni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda gemoblastozlarning strukturaviy tashkil topishi va morfologik xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot davomida jami 128 ta biomaterial namunasi, jumladan 52 ta suyak ko‘migi va 76 ta limfa tuguni namunasi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: gemoblastoz, suyak ko‘migi, megakariosit, morfologik tekshiruv, o‘tkir miyeloid leykoz, limfoblastik leykoz, limfoma, gemopoez.

Materiallar va usullar. Biopsiya materiallarini qayta ishlashda avtomatlashtirilgan gisto-protsessor va standart gistologik usullar qo‘llanildi. Suyak ko‘migi namunalarini tayyorlashda dekalsifikatsiya jarayoniga alohida e’tibor qaratilib, to‘qimaning antigen tuzilishini saqlashga qaratilgan yumshoq reagentlardan foydalanildi. Mikrotomiya Sakura Tissue-Tek SRM 200 rotatsion mikrotomida bajarilib, 3–4 mkm qalinlikdagi ketma-ket kesmalar tayyorlandi. Preparatlar gematoksilin-eozin bilan bo‘yalib, morfologik tahlil qilindi.

Natijalar. Gemoblastozlarning nozologik tarkibini tahlil qilish natijasida o‘tkir shakldagi kasalliklar salmoqli o‘rin egallashi aniqlandi. O‘tkir miyeloid leykoz 34 ta holatda (26,6%), o‘tkir limfoblastik leykoz esa 18 ta holatda (14,1%) qayd etilgan. Limfoproliferativ kasalliklar orasida diffuz B-katta hujayrali limfoma ustunlik qilib, 28 ta holatni (21,9%) tashkil etdi. Surunkali limfotsitar leykoz 16 ta (12,5%), follikulyar limfoma 10 ta (7,8%), Xodjkin limfomasi 8 ta (6,3%), ko‘p sonli mieloma 9 ta (7,0%) holatda aniqlangan. Boshqa noxodjkin limfomalari 5 ta (3,8%) kuzatuvni tashkil etdi. Morfologik tekshiruvda suyak ko‘migi va limfa tugunlari to‘qimasining normal arxitektonikasi buzilishi hamda organ-spetsifik tuzilmaning yo‘qolishi kuzatildi. Suyak ko‘migida o‘sma hujayralarining diffuz infiltratsiyasi, hujayralarning zich joylashishi va atipik belgilar mavjudligi qayd etildi. Patologik infiltrat natijasida normal gemopoez o‘choqlari, ya’ni

eritroid, granulotsitar va megakariotsitar qatorlarning keskin kamayishi yoki to‘liq yo‘qolishi kuzatildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari gemoblastozlarda to‘qima arxitektonikasining buzilishi, o‘sma hujayralarining diffuz infiltratsiyasi va normal gemopoezning susayishi muhim morfologik belgilar ekanligini ko‘rsatdi. Tekshirilgan guruhda o‘tkir miyeloid leykoz va diffuz B-katta hujayrali limfoma eng ko‘p uchragan nozologik shakllar bo‘ldi. Morfologik tekshiruvni immunogistokimyoviy tahlil bilan birgalikda olib borish gemoblastozlarni aniqlash va ularning immunofenotipini baholash uchun muhim hisoblanadi.